

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR  
PAGES

JOCAA

МАДАНИЈАТ ВА САНЈАТ

# Journal of Culture and Art

Volume I, Issue 2

April | 2023

КУЛТУРА И ИСКУССТВО



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 2-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-2

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-2

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВА | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 2 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-2>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, профессор в.б., Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим Козимович

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих фанлари номзоди, профессор

Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, доцент, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Абдувоҳидов Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна нутқи” кафедраси доценти

Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти кафедра мудир, Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси” кафедраси мудир, санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил изланувчи (PhD)

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи/Page Maker/Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**MAMAJONOV Ulug'bek Maxammattolibovich**

Andijon davlat pedagogika instituti

o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7885001>

## **O'ZBEK MILLIY MUSIQA ASBOBLARINI O'QUVCHILARGA TANISHTIRISH VA O'RGATISH YO'LLARI**

### **АННОТАЦИЯ**

Mazkur maqolada O'zbek xalq cholg'ularining har birini texnik jihatdan va tarannum darajasiga ko'ra ilg'or cholg'ular darajasiga kirishi. Ularning aksariyat namunolari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi, shu bois unda o'zbek xalq cholg'ularining shakli tuzilishi va ko'rinishi bilan bog'liq tomonlari, ijro uslublari va ularga tegishli janrlar hamda nufuzli ijrochilar haqida o'rta ta'lim tizim o'quv talabiga mos holda umumlashgan ma'lumotlar berilishi. Bu, albatta o'quvchilarni xalq an'anaviy cholg'ulari bo'yicha nazariy, amaliy tushunchalarga ega bo'lib kelinayotganligi yoritilgan

**Kalit so'zlar:** an'anaviy cholg'ulari, san'at, musiqa, maqom, ansambl, bastakor, an'ana, dutor, soz, torli tirnama, oktava, dasta, dombira, musiqa madaniyati.

**МАМАЖОНОВ Улугбек Махамматтолибович**

Андижанский государственный педагогический институт

преподаватель

## **ПУТИ ОБУЧЕНИЯ И ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ УЗБЕКСКИМ НАЦИОНАЛЬНЫМ МУЗЫКАЛЬНЫМ ИНСТРУМЕНТАМ**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье каждый из узбекских народных инструментов представлен на уровне передовых инструментов, технически и по уровню пения. Большинство их образцов имеют богатые исполнительские возможности и прекрасно сформированы, поэтому является системой среднего образования по аспектам, связанным с формой, строением и внешним видом узбекских народных инструментов, исполнительскими стилями и жанрами, связанными с ними, а также влиятельными исполнителями. Предоставление обобщенной информации в соответствии с образовательными требованиями. Видно, что у студентов есть теоретическое и практическое представление о традиционных народных инструментах.

**Ключевые слова:** народные инструменты, искусство, музыка, статус, ансамбль, композитор, традиция, дутар, соз, струнный инструмент, октава, даста, домбира, музыкальная культура.

MAMAJONOV Ulugbek Makhammattolibovich  
Andijan State Pedagogical Institute  
teacher

## WAYS OF INTRODUCING AND TEACHING UZBEK NATIONAL MUSICAL INSTRUMENTS TO STUDENTS

### ANNOTATION

In this article, each of the Uzbek folk instruments is introduced to the level of advanced instruments, technically and according to the level of singing. Most of their examples have rich performance possibilities and are perfectly formed, therefore, it is a secondary education system about the aspects related to the shape, structure and appearance of Uzbek folk instruments, performance styles and genres related to them, as well as influential performers. providing generalized information in accordance with educational requirements. It is clear that the students have theoretical and practical understanding of traditional folk instruments.

**Key words:** Traditional instruments, art, music, status, ansambl, composer, tradition, dutor, soz, string strum, octave, dasta, dombira, music culture.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, tariximiz o'tmishimiz hamda o'zligimizga yaxshiroq nazar sola boshladik. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va madaniy merosiga, san'at olamida kerakli o'rin tutgan o'zbek xalq cholg'ulariga e'tibor yanada kuchaydi. Bu o'rinda azaliy an'analarimizni tobora to'laroq tiklash, moddiy va ma'naviy durdonalarimizni, shu jumladan, musiqiy merosimizni mufassal o'rgana borish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uni yosh avlodlar tomonidan ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish hamda amaliy-ijodiy jihatdan puxta o'zlashtirish uchun so'nggi yillarda barcha zaruriy shart-sharoitlar yuzaga keltirgani e'tirof etish lozim.

Prezidentimiz tomonidan hozirgi kunda juda ko'plab farmon va qarorlar ishlab chiqildi shular qatorida musiqa va san'atni yanada rivojlantirish, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va hududiy jihatdan maqbul joylashtirish bo'yicha boshlangan ishlarni mantiqiy davom ettirish, o'sib kelayotgan yosh avlodning umumiy o'rta ta'limi va ularni har tomonlama ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning bir-biriga bog'langan yaxlit tizimini shakllantirish, bolalarning ijodiy salohiyatini yanada keng ochib berish, musiqa va san'atning boshqa turlarini chuqurroq tushunishi hamda ularga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, musiqa va tasviriy san'at sohalarida jahon buyuk merosini o'rganib bilishlari uchun shart sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilarni o'z ichiga olgan. Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha 2016-2020 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ishlab chiqildi va shu yillarda juda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Bundan tahqari Prezidentimiz 2022 yil 3 fevraldagi qarori bilan 2022/2023-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasini chala olish mahorati o'rgatiladi va bu ularning shahodatnomasida qayd etilishi to'g'risidagi qarorlari ham bejiz emas [1].

O'zbekistonning birinchi Prezidenti o'zining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida alohida ta'kidlaydi: «... agar insonning qulog'i yengil-yelpi, tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam «Shashmaqom» singari milliy merosimizning noyob durdonalarini ham, Motsart, Betxoven, Bax va Chaykovskiy kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlarini ham qabul qilishi qiyin bo'ladi. ... musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi» [2].

Milliy musiqa madaniyatimizning har qachongidan chuqurroq va atroflicha o'rganish, uni xalq ichida keng targ'ib qilish bugungi bosh maqsadlarimizdan biridir. Binobarin, o'zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo'lgan cholg'ular va cholg'u musiqasi qadimdan boy va murakkab tasviriy imkoniyatlarga egadir.

Ular barcha xalqlar musiqasi kabi o'ziga xos tarix va an'analarga boy. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan milliy cholg'ularimiz va musiqamizning ajoyib namunalari o'zining rang-barang jilosi, ohangrabo kuylari bilan kishilarga olam-olam shavq zavq va huzur baxshida etmoqda. 1964-yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida ilk bor milliy cholg'u asboblari sinfi ochildi. Bu esa davlat ta'lim tizimida zamonaviy (yozma manbalar asosida) yo'nalishdagi ijrochi-sozandalarni tayyorlash borasida birinchi dadil qadam edi. Keyinchalik O'zbekiston musiqasi madaniyatining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab san'atkorlar o'zlarining dastlabki bilimlarini aynan shu dargohda oldilar.

Ta'lim tizimini islox qilish, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Ayni paytda millatimiz istiqbolini belgilab beruvchi yosh avlodni bilimdon mutaxassis sifatida tarbiyalashning samarali yo'llari qidirilmoqda. Bugun kadrlar tayyorlash milliy dasturining II sifat bosqichida o'quv jarayonining darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash eng dolzarb vazifalardan biridir. Musiqasi insonni g'aroyib kuy va ohanglar dunyosiga boshlaydi, his tuyg'ularini noziklashtiradi, didini charxlaydi, go'zallikni sevishga o'rgatadi.

Har bir xalqning orombaxsh kuy-ohanglari, qo'shiq aytmilari, bir so'z bilan aytganda, milliy musiqasi bo'ladi. Xalq musiqasi ko'p va uzoq asrlilik sinovlardan o'tgan va qalbimizga jo bo'lgan ma'naviy boyligimizdir. Xilma-xil cholg'ularimiz va ularda sadolanib kelayotgan milliy navolarimizga esa ana shu ma'naviy boylarning ajiralmas qismidir.

“O'zbek xalqi musiqasi madaniyatining tarixi juda boy va qadimiydir. Shu kunga qadar topilgan ashyoviy yozma va og'zaki manbalarining dalolat berishicha qadimiy Xorazm, Baktriya va Sug'd yerlarida miloddan avval nihoyatda ko'rkam va rang-barang o'ziga xos maxalliy musiqasi san'ati mavjud bo'lgan. “Ayritom”, “Tuproq qal'a”, “Afrosiyob” kabi ko'xna mintaqalarda yaratilgan San'at obidalari ajdodlarimiz turmushida musiqasi keng o'rin tutgan va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etganligidan darak beradi. Shuning bilan birga ijrochilarning qo'llarida o'z aksini topgan arfasimon, changsimon, udsimon, naysimon cholg'ulari esa uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan mukammal sozlardan ekanligidan xabardor bo'lamiz”.

Musiqiy cholg'ular insoniyat ma'naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti maxsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasali, tobora mukammallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir cholg'ularda har bir xalqning milliy g'ururi, an'anasi, qadriyatlarini o'z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Bular barchasi yaratilajak cholg'ularning shakliga va milliylik me'zoniga asos bo'lib xizmat qiladi. Tarix davomida doimo musiqiy cholg'ularga bo'lgan e'tibor katta bo'lishi bilan birga tarbiyaviy tomonlari bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Zamonaviy jarayonda o'tmish an'alariga yangicha qarash, ilg'or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqasi eng muhim, ya'ni insonlarni ruxiy hamda ma'naviy tarbiyasiga asos bo'la oladigan omil sifatida qaraladi.

O'quv ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e'tibor berishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir. Qolaversa ta'lida alohida standartlar tarzida ishlangan dasturlar asosida faoliyat olib borish yo'lga qo'yilmoqda. Natijada o'qitish mezonida qo'llanilayotgan adabiyotlar va mavjud barcha nashrlarni zamonaviy talab darajasidagi yangi qarashlar bilan boyitish, shakllan hamda mazmunan yaxlit bir o'quv adabiyoti ko'rinishiga keltirib takomillashtirib borilmoqda. Taqdim etilayotgan mazur o'quv qo'llanmasi ham ta'lim tizimining o'rta bosqichi bo'lmish akademik litsey va kollejlarda tarbiyalanayotgan o'quvchilar uchun mo'ljallangandir. Unda o'quvchilar uchun o'zbek xalq an'anaviy musiqiy cholg'ularining o'tmish davrlaridan boshlab shakllanishi va rivoji, zamonaviy jarayondagi o'rni va qo'llanilishi hamda takomillashish mezonlari xususida ma'lumotlar o'quv dasturida rejalashtirilgan tartib bilan bayon qilinadi [3].

Ma'lumki musiqiy cholg'ular va ular bilan bog'liq namunalari xalq musiqasi ijodiyotining ahamiyatga ega bo'lgan tarkibiy qismini tashkil etadi. Xozirgi davrgacha yuzaga kelib amaliyotda o'z o'rnini egallash va ijrochilik amaliyotining yuqori saviyaga ko'tarilib borayotganligi, umumbashariyat madaniyatida alohida nufuzga ega ekanligi ham bundan dalolat beradi.

O'zbek xalq cholg'ularining har birini texnik jihatdan va tarannum darajasiga ko'ra ilg'or cholg'ular darajasiga kiritish mumkin. Ularning aksariyat namunalari boy ijroviy imkoniyatlari hamda mukammal darajada shakllanganligi bilan ajralib turadi.

O'quv adabiyotlar yaratishdan maqsad o'quvchilar uchun o'zbek xalq cholg'ulari haqida tegishli ma'lumotlarni to'plash hamda cholg'ularga bag'ishlab yaratilgan adabiyotlar haqida yaxlit ma'lumotlar jamlangan manbaga ega bo'lishdan iboratdir. Pirovardida, ushbu adabiyot o'quvchiga ilk tanishuv va davomiy faoliyatida yo'l boshchi bo'lsin. Shu bois unda o'zbek xalq cholg'ularining tarixiy kelib chiqishi jarayoni, shakli tuzilishi va ko'rinishi bilan bog'liq tomonlari, ijro uslublari va ularga tegishli janrlar hamda nufuzli ijrochilar haqida o'rta ta'lim tizim o'quv ta'labiga mos holda umumlashgan ma'lumotlar yoritilgan. Bu, albatta fan o'quvchilari uchun xalq an'anaviy cholg'ulari bo'yicha, o'quvchilar an'anaviy cholg'ular haqida tarixiy, nazariy, amaliy manbalar xususida muayyan tushunchaga ega bo'ladi.

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan ya'ni qayta ishlangan cholg'ulardir [4].

#### *SURNAY*

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasida keng tarqalgan qadimiy puflama yog'och cholg'u asbob. Surnay yolg'iz, shuningdek, nog'ora, karnaylar bilan ham birgalikda chalinadi. So'nggi vaqtlarda o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestriga ham qo'shilmoqda. Surnayda chap va o'ng qo'l barmoqlari bilan yopiladigan oltita teshikcha bor. Yettinchi teshik esa pastki tomonda bo'lib, chap qo'lning bosh barmog'i bilan berkitiladi. Uning ovoz hajmi kichik oktavadagi lyadan, ikkinchi oktavadagi miga qadar notalari skripka kalitida yoziladi. Surnay tovushi baland bo'lgani uchun, ochiq havoda turli tantanalarda chalinadi. Surnay Kavkaz va Eron xalqlarida ham qo'llaniladi. Surnayda xalq kuylari qatorida maqom yo'llari ham ijro qilinadi. Surnay turli to'y marosimlarida, dor o'yinlarida, karnay va nog'oralar bilan ansambl bo'lib ijro qilinishi mumkin. Nikoh to'ylarida dastlabki musiqani surnay ijrosidagi "navo" bilan boshlash odatlanilgan. Surnay navosi o'ziga xos yoqimli va zavq bilan tinglanadi.

#### *QO'SHNAY*

Qo'shnay qadimiy o'zbek cholg'u asboblaridan ikki qamish naychadan iborat bo'lib, ularga tovush chiqaradigan til o'rnatiladi. Qo'shnayni chalish uchun ikkita naychaga barovar puflanadi va har ikkala naychada yondosh joylashgan yettita teshikchaning tegishlilari barmoq bilan bosiladi. Ovoz hajmi birinchi oktavadagi Redan ikkinchi oktavadagi Solga qadar. Qo'shnayda o'zbek musiqasi uchun xos bo'lmagan melizmni, qochirimni chalish juda qulaydir.

#### *NAY*

Nay - puflab chalinadigan yog'och asbob bo'lib, O'zbekiston va Tojikistonda juda keng tarqalgan. Nayni Buryatiya va Mongoliya Xalq Respublikasida limba, Xitoyda li, Vetnamda sao, Afg'onistonda esa mola deb yuritiladi.

Nay yog'ochdan (yog'och nay), jezdan (mis nay), g'arov (g'arov nay), to'nkadan (bridji nay) yasaladi.

Eng ko'p tarqalgan yog'och nay bilan g'arov nayidir. Nayda barmoqlar bilan berkitiladigan oltita va lab bilan puflash uchun bitta teshik bor.

Yuqoridagilardan tashqari, hech qanday vazifani bajarmaydigan qog'oz yopishtirib qo'yilgan bitta teshik va nayning oxirida to'rtta teshik bor. Bulardan eng pastga joylashgan ikkita teshik o'zining o'rniga qarab asosiy tonning balandligini aniqlaydi.

#### *QONUN*

Qonun-cholg'u asbobi, changga o'xshash qadimiy musiqasi asbobi bo'lib, u barmoqlarga maxsus yasalgan noxun bilan tirnab chalinadi. XVII-asrda Darvishali Changiy yozib qoldirgan "Risolai musiqiy"da qadimiy cholg'u asboblaridan biri ekanligi qayd etilgan. Hozirgi kunda qonun cholg'u asbobi sinfi san'at kolleji va musiqasi yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida mavjuddir.

*DO'MBIRA*

Do'mbira cholg'u asbobi ikki xil bo'lib; Torli tirnama o'zbek cholg'u asbobi. Dytop tuzilishidagi do'mbirada ippak yoki ichakdan qilingan ikkita tor bo'lib, bu torlar ko'proq kvarta oralig'ida sozlanadi. Do'mbira dastasida bog'langan yoki doimiy parda bo'lmaydi.

Qozoq do'mbirasi dastaga bog'langan pardalar bilan ajraladi.

Torli-tir nab chalinadigan qozoq xalq asbobi do'mbira 30-yillarda qayta ishlanib, buning pikkalo, prima, tenor, bas va kontrabas turlari ishlab chiqilgan. Pardalar xromatik qilinib ishlangan. 1934 yil tashkil qilingan Qurmang'oz nomidagi Qozog'iston Davlat xalq cholg'u orkestrida do'mbira asosiy o'rin egallaydi.

*CHANQOVUZ*

Chanqovuz - ikki lab orasiga qo'yilib o'ng qo'l barmoqlari bilan chalinadigan cholg'u asbobidir. Temirdan qilingan aylanma ramka oralig'ida po'lat til o'rnatilgan, chalganda barmoq bilan tilni harakatga keltirib to'ldiriladi. Og'iz bo'shligi tovush beruvchi rezonans xizmatini bajaradi va oktava hajmi oralig'ida tovush beradi. Changqovuz Markaziy Osiyo xalqlari xotin- qizlari orasida keng tarqalgan. Yoqut xalqlarida erkaklar ham changqovuz chaladi, ulardan ansambl tuzilgan.

*CHANG*

O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy urma cholg'u asbobi-changdir. Uning sadosi baland bo'lgani uchun, ilgari faqat cholg'u kuylarini ijro etishda ansamblga qo'shganlar, Chunki davomiy jaranglovchi sadosi ashulani buzgan. Changning sozlangan uchadan tori bo'lib, ovoz hajmi katta oktavadagi Soldan ikkinchi oktavadagi Miga qadar. Ilgari xalq o'rtasida qo'llangan changning tovushqatori diatonik tartibda bo'lgan. Notalar eshutilishiga nisbatan oktava yuqorida, skripka kalitida yoziladi. Chang rezinka qoplangan maxsus ingichka cho'p bilan urib chalinadi. Hozir Chang qayta ishlanib, tovush qatori xromatik, ya'ni yarim tonlik qilingan. Ijrochining o'tirib chalishiga qulay bo'lishi uchun vintlar o'rnatilgan oyoqlari bor. Davomli sadoni yo'qotish uchun maxsus pedal ishlangan.

*DOIRA*

Doira - o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlari orasida keng tarqalgan, tovush balandligi noaniq urma cholg'u asbob. Doira gardishiga buzoq yoki baliq terisi qoplanadi, qirqdan ortiq xalqachalari taqilib, bular doirani chalganda qo'shimcha sado beradi. Doirada ikkita asosiy tovush bor. Biri past "Bum" ikkinchisi baland "bak" deb yuritiladi. Ketma-ket kelgan ikkita hisqa tovush "bakko" yoki "bakka" yoki "baxa" deb yuritiladi. Doira keng tarqalgan cholg'u asboblardan. Doira ijrochiligidagi raqslar o'zbek va tojik xalqlari orasida juda keng tarqalgan. Shoshmaqom doira usulisiz ijro qilinmaydi. Buxoroda har bir maqom aytuvchi hofiz maqom usullarini doirada ustalik bilan o'zlashtirgan va o'z ashulariga jo'r bo'lgan. Doira tovushlari notada puflama va simfonik orkestrdagi urma cholg'u asboblarinikidek bir chiziqqa yoziladi.

*G'IJJAK*

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, o'zbeklar orasida qadimdan keng tarqalgan kamoncha bilan chalinadigan torli cholg'u asbob, kosasi qovoqdan, o'rtasi kovak qilib o'yilgan yog'ochdan yasaladi. Kosaning ustiga baliq terisi yoki pufak qoplanadi. Dastasi dumaloq bo'lib, kosaga yaqinlashgan sari ingichkalashtirib ishlanadi. Kosaga o'rnatilgan temir oyoqchani ijrochi tizzasiga qo'yib o'tirib chaladi. G'ijjakda dastlab uchta tor bo'lib, ular kvarta bo'yicha sozlangan. Sozlanishi har doim aniq bir tovushda bo'lmay, ashulachining ovozi yoki chalinadigan kuyning xarakteriga ko'ra turlichadir. 20-yillarda sozandalar g'ijjak ovozi baland qilish maqsadida unison qilib sozlangan qo'shtorlar ishlatganlar. G'ijjak yakka va ansamblida chalingan, kamonchasi ot dumidan ishlanib, chalish vaqtida o'ng qo'l barmoqlar bilan tortib turiladi. 30- yillarda g'ijjak qaytadan ishlandi, to'rtta tor joriy qilindi, ular skripkadek kvinta oralig'ida 4-eng pastki yo'g'on tor kichik oktavadagi solga, 3-tor birinchi oktavadagi Rega, 2-tor birinchi oktavadagi Lyaga va oxirgi 1-tor oktavadagi Miga sozlanadi. Ovoz hajmi kichik oktavadagi SOLDan, to'rtinchi oktavadagi Lyaga qadar. Qayta ishlangan g'ijjak dastasi dumaloq emas, aksincha, skripka dastasidek yassi qilib ishlangan, oyoqchasi stulda o'tirib chalish uchun qulaylashtirilgan.

*RUBOB*

Osiyoning ayrim xalqlari, xususan, o'zbeklar, tojiklar o'rtasida qadimdan keng tarqalgan torli tirnama cholg'u asbob rubobdir. O'rta Osiyo xalqlariga nisbatan Janubiy Xitoyning Sintszyan viloyatida yashovchi uyg'urlar o'rtasida keng tarqalgan turi qashqar rubobi deyiladi. Rubob kosasi qazma, yani o'yilib, ustiga teri qoplangan, dastasiga ipak yoki ichakdan qilingan pardalar bog'langan.

Rubobda beshta tor bo'lib, uchasi ipak tor, ikkitasi sim tordir. Bular 5 va 4 torlar katta oktavadagi Lyaga unison. 3-tor kichik oktavadagi Miga va asosiy melodik, 2 va 1-torlar kichik oktavadagi Lyaga unison sozlanadi. Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan rubob qayta ishlanib, yarim pardalar asosida ishlangan va pardalar doimiy surilmaydigan qilib yasalgan. Bu rubobdagi beshta torning to'rttasi sim tor bo'lib, beshinchisi ichak tordir, kvarta bo'yicha - tor katta oktavadagi Siga, 4 va 3 torlar kichik oktavadagi Miga unison, 2 va 1-torlar esa kichik oktavadagi Sidan, ikkinchi oktavadagi Lyaga qadar. Rubob notalari eshitalishga nisbatan oktava yuqorida skripka kalitida yoziladi.

*AFG'ON RUBOBI*

Afg'on rubobi-o'zbek xalq cholg'u asboblari orasida o'zining tashqi tuzulishi bilan ajralib turadi. U juda boy tembr tovushiga egadir.

Afg'on rubobi nafaqat respublikamizda, balki Tojikiston, Afg'oniston, Buxoro va boshqa vohalarda ham keng tarqalgan. Bu cholg'u asbobda xalq kuylari bilan bir qatorda, barcha qardosh kompozitor kuylarini ham mohirona ijro etish mumkin.

Afg'on rubobini Buxoro rubobi ham deyishadi O'zbekistonga ham bu cholg'u asbobini Buxorolik cholg'uchi, sozandachilar olib kelishgan.

Afg'on rubobi qayta takomillashtirilgandan keyin 1960 yili Toshkentdagi Glier nomli musiqa maktab internatida afg'on sinfi ochildi va keyinchalik Toshkent Davlat konservatoriyasining o'zbek cholg'u asboblari bo'limida 1964 yili shu sinf ochildi. Bu sinfda qashqar rubobida o'qigan talabalar olinib, ular shu sinfni tugatishib, boshqa viloyatlarda ham afg'on rubobi sinfi vujudga keldi.

*DUTOR*

Dutor- o'zbek, tojik, turkman va uyg'ur xalqlari o'rtasida keng tarqalgan torli tirnama cholg'u asbob.

Dutor ikki qismdan, dasta va kosadan iborat bo'lib, ularni birlashtiruvchi qismi «bo'g'iz» deb ataladi. Dutor kosasi o'yma yoki «qobirg'a»chalarning birlashganidan yasalishi mumkin. O'yma dutor Samarqand, Xorazm va Turkmanistonda qo'llanilib, bir bo'lak tut yog'ochdan o'yib ishlanadi.

*TANBUR*

Tanbur-bu tan, yurak, dil, ya'ni yurakni qitiqlamoq, larzaga solmoq demakdir. Tanbur ham uzoq asrlardan beri o'zbek, tojik va uyg'ur xalqlariga madaniy xizmat qilib kelayotgan sernola, sersado, serohang, dilrabo milliy musiqa cholg'ularimizdan biri bo'lib, uni tinglayotgan shinavandalar qalbini larzaga solib kelmoqda.

Tanburning kosasi tut yog'ochidan, dastasi esa asosan o'rik va boshqa yog'ochlardan yo'nilib, dastasiga ichak pardalar bog'landi, torlari misdan tortilib, noxun deb ataluvchi metaldan ishlangan moslama yordamida chalinadi.

Tanbur fortepianoning kichik oktava "sol", "re" siga sozlanadi. Tanburchilar ko'p, ammo ular orasida el-yurt hurmatiga, shinavandalar tahsiniga sazavor bo'lganlardan:

Sultonxon Hakimov, Rixsi Rajabiy, Shobarot tanburchi, Maqsud Xo'ja Yusupov, Jo'rabek Saydaliev, Abdumutal Abdullaev, Otavali Nuriddinov, usta Ro'zimaxon Isoboev, Qayum Shobarotov, emmanuel Baraev, Yoqubov, Davidov, Shonazar Sohibov (Tojikiston), Nizomiddin Mirzaxo'jaev, Turg'un Alimatov, Abdulla Umarov.

*UD*

Ud juda qadimiy musiqa asbobidir. Uning bizga ma'lum bo'lgan dastlabki shakli Ayritomdan topilgan, eramizning birinchi asrlariga oid ajoyib madaniyat yodgorligida o'z aksini topgan.

Ud arabcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi turlichadir. U birinchidan yog'ochi qora tusli daraxtning nomidir. Ud dastlab shu daraxtdan yasalgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ud iborasi bayram, to'y-tomosh, xursandchilikni ifodalaydigan «iyd» iborasining ma'lum shaklidir. Bu o'rinda xushchaqchaqlik kayfiyatni bag'ishlovchi soz ma'nosida ham kelishi mumkin.

Udning dastlabki nomi "Barbad" bo'lganligi ba'zi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Barbad ikki so'zdan iborat bo'lib, bar-qomat, bad-o'rdak ma'nolarida keladi. Barbad qorni katta va dastasi-kalta musiqa asbobidir. Unga o'rdak qomatiga o'xshagani uchun barbad nomi berilgan emish. Barbad eng qadimiy torli asbobdir. Fisog'ursdan so'nggi davrlarda yashagan musiqachilar barbadni takomillashtirdilar va uning asosida ikki, uch, to'rt torli musiqa asbobi yasaganlar. Barbad esa ko'p manbalarda hamma torli asboblarning yuzaga kelishida asos bo'lgan, deb ko'rsatilgan. Uning shu takomillashgan keyingi shakli go'yo ud emish.

Ud qariyb XVII asrlargacha yashagan, deb taxmin qilish mumkin, Keyinchalik esa O'rta Osiyoda iste'moldan chiqib ketgan hamda boshqa qadimiy musiqa asboblari uning o'rnini ola boshladi.

O'rta Osiyo xalqlarining, jumladan, o'zbek, tojiklarning cholg'u asboblari rang-barangdir. Albatta, bu xalqlarning madaniyati qadimdan boy bo'lganligi, tinmay rivojlanganligidan dalolat beradi.

*O'zbek milliy musiqa asboblari o'quvchilarga tanishtirish va orgatish yo'llari.* Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga o'zbek musiqa cholg'u asboblari tanishtirish cholg'u asboblari guruhlarini bo'yicha amalga oshiriladi. Masalan, avvalo puflab chalinadigan asboblari bilan, keyin jarang torli musiqiy urma asboblari, so'ng chertib va tirnab chalinadigan musiqa asboblari va hokazo.

Musiqa o'qituvchisi tomonidan darsga o'zbek musiqa asboblari namuna olib kirish bolalar uchun darsning eng qiziqarli qismidir. Chunki, kattalar cholg'u asboblari jonli va haqiqiy musiqa asbobi sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Musiqa asboblari birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik elementlari orqali ijodkorlik va musiqa o'quvi qobiliyatlarini ravnaqi uchun muhimdir.

Musiqa asbobi o'qituvchi tomonidan chalinsa, bolalar o'zlarini namoyish qilishlariga, darsda faol bo'lishlariga yordam beradi. Darsga olib kirilgan musiqa asbobi o'qitishda ko'rsatmali didaktik qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga bolalarning musiqali sensor qobiliyatlarini o'stirishda, ularni musiqa savodining elementlari bilan tanishtirishda yordam berishi mumkin.

O'qituvchi kuzatishlar natijasida sinf bolalarining iste'dodi va imkoniyatlarini hisobga olib, bolalardan kichik ansambl va orkestr tuzish mumkin. Ansamblda yoki orkestrda ishtirok etish ma'lum ma'noda asboblarning mavjud bo'lishini va quyidagilarni o'qituvchi talab qiladi.

Bolalar musiqa asboblari nomi, chalinish xarakteri yo'g'on va ingichka tovushlarning joylanishini, foydalanish va muomalada bo'lish qoidalari bilan chalish usullarini egallaydilar, ular mustaqil va ansamblda umumiy dinamika, tempga rioya qilib, o'z yo'llarini vaqtda boshlab va yakunlab qo'shiqlarni va o'yinlarni ijro etishlari mumkin.

Ishning yaxshi tekshirilgan metodlari-ko'rsatish va og'zaki tushuntirish qatoriga yangilari qo'shiladi. Bola o'ziga berilgan asbobni o'qituvchi ko'magisiz, u yoki bu asboblari chalinishining izchilligini eslash. Ijodiy topshiriqlar bajarish va shu kabilar tavsiya qilinadi.

Musiqa asboblari navbatma-navbat o'zlashtirish kerak. Avval bolalarni asbobni, masalan, doirani chalish bilan tanishtirib, bir necha dars davomida ikki-uch kichik asarga jo'r bo'lishni o'rgatish mumkin. Ba'zan cholg'u asbobni bolalar bilan birgalikda ko'rib chiqib, xato qilganlarida tuzatib, uni chalish usulini mustaqil topishni topshirish ham foydali bo'ladi. Bunda ritm-usul beradigan asboblarni bir vaqtda o'zlashtirish mumkin.

Ilk bosqichdayoq bolani ansamblda ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan hamkorlikdagi uyg'un harakatlarga o'rgatish lozim. Shu maqsadda o'ziga xos «Ritmik orkestrlar» tuzilib, unda bolalar chapak chalib, oyoqlarini tappillatib, tayoqchalar, bo'sh yoki mayda tosh, no'xat to'ldirilgan qutichalarni taqqillatib chalishadi. Bu yerda ham turlicha ovoz berish shakllantiriladi. Agar kaftlarni hovuch qilib chapak chalinsa, ovoz qattik, bo'g'i qroq chiqadi, kaftlar yassi holatda bo'lsa, ovoz aniq, jarangli chiqadi. Bir qo'ning uzatilgan yoki sal bukilgan barmoqlari bilan ikkinchi qo'ning kaftiga urib ovoz chiqarishni o'zgartirish mumkin. Tappillatish butun oyoq bilan, oyoq uchi bilan, poshna bilan, navbatma-navbat oyoq uchi va poshna bilan hosil qilinadi, so'ngra kaft, panjalar bilan urilib ovoz chiqariladi. Bularning barchasi bolalarni jalb qilib, turli ritmik topshiriqlarni to'g'ri bajarish va musiqa asbobini chalish malakalarini egallash imkonini beradi.

Tajribalar darsda urma cholg' u asboblardan doira, nog' ora, safoil, qayroq, qoshiq kabilar bo'lishi yaxshi natija berishini ko'rsatmoqda. O'qituvchi rubobda o'zbek xalq kuylaridan bolalar bobini chaladi va bunga bolalarning chapak bilan jo'r bo'lishlarini taklif qiladi. Avvaldan o'qituvchi kim chiroyli va to'g'ri chapak chalsa «mukofotga» stol ustiga terib qo'yilgan urma cholg' u asboblarda chalib musiqaga jo'r bo'lajagini aytib qo'yadi. Agar chalib beradigan kuyi magnit tasmasida yoki disketda bor bo'lsa, uni eshittirishga qo'yib chapak chalish usullarini avval o'zi ko'rsatib bersa samara yaxshi bo'ladi. So'ngra o'zi kuyni ijro etib, barchani kuyga chapak chalib jo'r bo'lishiga taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib bolalarga urma xalq cholg' u asboblari tarqatadi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklar tushuntiriladi. Mazkur ijro avval cholg' u asboblarda chalib, jo'r bo'lish yo'lga qo'yilgach, qolgan bolalar chapak bilan jo'r bo'lishlari taklif qilinadi.

Cholg' u asboblarda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun cholg' uchilar almashinib turadi. Vaqti kelib bolalarda maskur ijrolarda yaxshi ko'nikmalar hosil bo'lgach, usul strukturasi va ijrochilik turlari bir oz murakkablashtiriladi, masalan, «Andijon polkasi» ga cholg' ularda chalish va chapak chalish bilan birgalikda og'izda «Bum- bak, baka-bum» deb usul berib ham jo'r bo'lish mumkin. Ayni holda sinfni ikkiga bo'lib, birinchi guruh jo'r bo'lishlari, hatto, sinf sahnasiga xohlovchi bolalarni rol bajarishga ham taklif etish mumkin. Boshqa bir variantda o'qituvchi doirada «bum bak-ka» usulini aniq va tekkis chalib turadi. «Bum» ga birinchi guruh bolalari, «bak-ka» usuliga esa ikkinchi guruh bolalari jo'r bo'ladilar. Kuyning doskada ko'rsatiladigan grafik surati va uning ritmik tuzilmasiga teng chorak va nimchorak notalar obrazlari bilan tanishgach, bunday mashqlarni doskada kartochkalar vositasida yaratilgan kuyning ritmik tuzilmasiga qarab bajarish oson ko'chadi. Bunday darslar, avvalo, dars mazmunini qiziqarli qiladi, ularni o'zbek xalq musiqasi asboblari olami bilan tanishishlariga yordam beradi, o'quvchilar faoliyatini faollashtiradi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqasi o'quv qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishni ta'min etadi [5].

Umuman olganda, darsda o'zbek xalq cholg' u asboblari bilan tanishish va chalishni amalga oshirishda o'quvchidan katta ijodkorlik va topqirlik talab etiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, darslar davomida olingan bilim qaysidir iste'dodli va qobiliyatli o'quvchilarni yetarli darajada qoniqtirmaydi. Shuni hisobga olib musiqaviy tarbiya hamda unga qo'yilgan pedagogik talablarni zamonaviy texnologiyalar amalga oshirishda har bir musiqasi o'qituvchisi ma'suliyat bilan yondashishi kerak.

**IQTIBOSLAR**

1. SH.M.Mirziyoyevning 2022 yil 3 fevraldagi qarori
2. I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» Toshkent 2008
3. Azimov A. "Cholg'u asbob darsligi". o'qituvchi. Toshkent, 1990
4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblarida ijrochilik tarixi. Toshkent., O'qituvchi 1995 yil.
5. T.Ortiqov "Musiqqa o'qitish metodikasi" Toshkent muharrir nashriyoti 2010
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2016 yildagi 144-son

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 2-СОН

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-2

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-2

2023 йил 31 март куни чоп этилди.

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)